



YUNESKO ishlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi
National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

O'zbekiston, Toshkent, 100029, T.Shevchenko ko'chasi 1-uy / 1, T.Shevchenko street, Tashkent, 100029, Uzbekistan
tel: (+998-91) 477-70-90 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2024-yil 30-sentabr № 341/24

O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasiga

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligiga

Ma'lumot uchun:

Tashqi ishlar vazirligiga

YUNESKO tashkiloti tomonidan Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) sohasida faoliyat olib borayotgan yosh olim va olimalarni targ'ib etishga qaratilgan YUNESKO/Al Fozan xalqaro mukofotining 2024-yil uchun tanlovi e'lon qilindi.

Ushbu xalqaro mukofot har ikki yilda bir marotaba e'lon qilinib, beshta mintaqadan tanlab olingan 5 nafar yosh olim va olimalar uchun taqdim etiladi. Mukofot miqdori 50,000 AQSH dollariga teng. Mukofotga loyiq nomzodlar xalqaro hay'at tavsiyasi asosida YUNESKO Bosh direktori tomonidan tanlab olinadi. Mukofot tanlovi bo'yicha batafsil ma'lumotni quyidagi havola orqali olish mumkin: <https://www.unesco.org/en/prizes/al-fozan>.

Tanlovda ishtirok etishni istagan nomzodlar quyidagi me'zonlarga mos bo'lishi lozim:

- Mukofot ilm-fan, texnologiya, muhandislik yoki matematika sohasida erishgan yutuqlari, xususan STEM sohasidagi tadqiqotlari, yangi texnologiyalar kashfiyoti mavjud bo'lishi;
- STEM sohasidagi ta'lim, tadqiqotlar natijalarini, ilmiy ijodi va innovatsiyalari uchun e'tirof etilgan bo'lishi;
- STEM sohasida xalqaro yoki mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shgan bo'lishi;
- Nomzodlar yoshi 40 dan oshmagan bo'lishi kerak.

Nomzodlar quyidagi havola orqali onlayn tarzda ro'yxatdan o'tishi hamda nomzodlik ariza shakillari ingliz yoki fransuz tillarida to'ldirilishi belgilangan: <https://apply.unescoalfozanprize.org/login>. Tavsiya etilayotgan nomzod bo'yicha ma'lumot Milliy komissiya kotibiyatiga taqdim etilishi lozim. Nomzodlar hujjatlari onlayn tarzda 2024-yilning 14-sentabridan 2025-yilning 15-aprel kuniga qadar taqdim etilishi lozim. Olima ayollar nomzodlari qo'llab-quvvatlanadi.

Shu munosabat bilan, tanlovda ishtirok etishga loyiq bo'lgan nomzodlarni aniqlashda hamda YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya kotibiyatiga 2025-yilning 25-mart kuniga qadar tavsiya etishda amaliy yordam ko'rsatish so'raladi.

Ilova: _v.

Bosh kotib o'rinbosari



E. Najimov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

K/R: 4/1-8807

2024-yil 30 -sentabr